RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
2024
№4
oktabr-dekabr
http://dgeconomy.tsue.uz/
ILMIY ELEKTRON JURNAL

# HUDUDIY BOSHQARUV ORGANLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH

**Qo‘chqorov Tohir Safarovich**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.**
tkuchkarov443@gmail.com
**Boymurodov Mirabbos Zafariddin o‘g‘li**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Elektron tijorat” yo‘nalishi magistranti**
mirabbos0616@gmail.com

***Annotatsiya***
*Maqolada davlat organlari ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan tartibda nazorat qilish va qayta ishlash, elektron xizmatlar orqali davlat fuqarolariga qulaylik yaratish kabi tamoyillar qo‘llanilishi uchun “Mahalla ijro” platformasi ishlashi haqida so’z yuritilgan. Raqamli iqtisodiyotda fuqarolarning asosiy muammolari, jumladan muommoli fuqarolar hududini aniqlash, ma’lumot bazasi aniqlash va elektron xizmalar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq muomolarini ham alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonda davlat organlar ma’lumotlarini raqamlashtirish imkoniyatlari va istiqbollari ko‘rib chiqilgan.*

***Аннотация***
*В статье говорится о работе платформы «Mahalla ijro» для применения таких принципов, как контроль и обработка информатsiя государственных органов в автоматизированном порядке, а также создание удобства для граждан государства посредством электронных сервисов. Особое внимание уделено основным проблемам граждан в цифровой экономике, включая выявление проблемных зон граждан, выявление информатсионных бази увеличение количества электронных услуг. Рассмотрены возможности и перспективы цифровизации государственных органов Узбекистана.*

***Abstract***
*The article talks about the operation of the "Mahalla ijro" platform for the application of such principles as the control and processing of information of state bodies in an automated manner, and the creation of convenience for citizens of the state through electronic services. Special attention is paid to the main problems of citizens in the*

*digital economy, including the identification of problem areas of citizens, the identification of information bases and the increase in the number of electronic services. The possibilities and prospects for digitalization of government bodies of Uzbekistan are considered.*

***Kalit so'zlar***
*Raqamlashtirish, E-hukumat, Raqamli texnologiyalar, Sun'iy intellekt, Integratsiya, digital transformatsiya, blokcheyn, elektron kalit, platformalar.*

***Ключевые слова***
*Цифровизация, Электронное правительство, Цифровые технологии, Искусственный интеллект, Интеграция, Цифровая трансформация, блокчейн, электронный ключ, платформы.*

***Keywords***
*Digitization, E-government, Digital technologies, Artificial intelligence, Integration, Digital transformation, blockchain, electronic key, platforms.*

## Kirish

Hozirgi kunda boshqaruv organlarida raqamlashtirish jarayonlari jahon miqyosida jadal rivojlanib bormoqda. Hududiy organlarining eng quyi bo`g'inidan mahallabay ishlashda ma'lumotlar tez-tez yangilanish sababli mahalla tizimini aholi sonlari, ko'chalar holatni infratuzilmalarini yaxshilash, masofaviy va raqamli xizmatlarni yaxshilash, hudud aholisini muammolarini aniqlash va ijrosini tezlashtirishga va tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida hal qilinish asosiy maqsad qilib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.06.2022 yildagi 292-son O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risida.(2) Aholiga raqamli va masofadan Mahalla platformasi yanada samaraliroq xizmatlar ko'rsatishni taklif etib boshlaydilar. Binobarin, tuman aholilariga interaktiv xizmatlarni mahalla miqyosida samarali boshqarishda, to'lovlarni ham masofaviy amalga oshirishda va davlatning boshqa tashkilotlari bilan uzluksiz ish faoliyatini tashkil etishda turli inqiroz ta'sirlarini kamaytirishga yordam berishi lozim bo'ladi. Natijada, yangi raqamli va moliyaviy texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj oshib bordi. Bu esa mahalla tizimini raqamlashtirishni keng ko'lamda amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'zbekistonda fuqarolariga masofadan turib xizmatlaridan foydalanishni taklif etish zaruriyati vujudga keldi va oqibatda bu sohada mobil ilovaning xizmat turlarida (Xalq nazoati, Smart mahalla, E-imzo, SoliqUz), raqamli yordamchilar, Mygov xizmatlari va ilovalar, internet banking, sun'iy intelekt va boshqa innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi.(3) Bu davrda Boshqaruv organlar ham fuqarolari ham ijobiy tajriba va ko'nikmalarga ega bo'ldi. O'zbekistonning mahalla tizimini takomillashtirish va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023 yildagi PF-209 sonli farmonda mahallalarni qo'llab-quvvatlash kengashlari, "mahalla ettiligi" va mahalla budjeti tizimlari joriy etilishi, fuqarolarni

ijtimoiy yordam va subsidiyalar bilan ta’minlash uchun yangi tartibli elektron xizmatlar belgilanishi, hamda mahallalar ichidagi muammolarni hal qilishda davlat organlari va jamoatchilikning hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan platforma yaratish koʻrsatilgan.(4) Shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan aniq vazifalar elektron olib borish hamda ijrosini elektron taminlash va ish samaradorligini ta'minlash choralari koʻrsatilgan.

## Adabiyotlar tahlili

Mahalla raqamlashtirish oxirgi oʻn yillar ichida shiddat bilan rivojlanib bormoqda va u haqida turli olimlar oʻz fikrlarini aniq qilib bayon qilishganlar. Kris Skinnerning fikricha, raqamlashtirish - bu raqmli texnologiyalarni joriy etish orqali, resurslarni boshqarishni raqamlashtirish, yangi innovatsiyalarni joriy etish, kompaniyalar boshqaruvini oʻzgartirish va uni boshqarishdagi fikrlashlarni oʻzgartirish demakdir.(5) Josep M. Codina - Ochiq ma'lumotlar nafaqat hukumatning shaffofligini oshiradi, balki fuqarolarni jamoat qarorlarini qabul qilish jarayoniga faolroq jalb qilishni ta'minlovchi yangi innovatsion ekotizimni yaratadi.(6) Harvard universitetining professorasi Shoshana Zuboff Kuzatuv - kapitalizmi hukumatlar raqamli iqtisodiyotni tartibga solish boʻyicha mas'uliyatini bekor qilganida rivojlanadi, chunki bu iqtisodiyot inson hayotining har bir jihatini boshqarishga qodir deb takidlagan.(7) Raqamli texnologiyalar boshqaruvni yanada inklyuziv va shaffof qilish imkoniyatiga ega, ammo agar ularni tenglikni hisobga olib loyihalamasak, ular tengsizlikni mustahkamlash kuchiga ega aytgan Massachusetts Institute of Technology, MIT professorasi Catherine D'Ignazio.(8) Rossiya akademiyasi akademigi, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassis Vladimir G. Gorshkov - Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlariga kiritish, shaffoflikni sezilarli darajada oshiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.(9) Rossiya davlat universitetining professorasi Igor S. Klyuchnikov - Raqamli boshqaruvdagi asosiy muammo shundaki, raqamli echimlar faqat ma'muriy ehtiyojlarni emas, balki fuqarolarning ishtirokini va jamoat muloqotini ham osonlashtirishi kerak. (10) Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv organlarini raqamlashtirish va dunyo integratsiya jarayonlari haqida yozgan Farkhod Abdurakhmnonov.(11) Oʻzbekistan Milliy Universiteti professori, informatika sohasida mutaxassis Shavkat Boboyev Raqamli boshqaruv va elektron hukumatni rivojlantirish faqat texnologik yangiliklar bilan chegaralanmasligi kerak, balki fuqarolarni boshqaruv jarayonlariga faol ravishda jalb qilish zarur.(12) Davlat boshqaruvi tizimi va uning fuqarolar bilan oʻzaro aloqalari mustahkamlanishi zarur. Ushbu tajribalar shaffoflik, samaradorlik va fuqarolar bilan aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili bu jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini va muvaffaqiyat omillarini ochib beradi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv organlarini raqamlashtirishning xorijiy tajribasini oʻrganish uchun metodologik yondashuvlar qoʻllaniladi. Mavjud adabiyotlarni va xorijiy tajribalarni oʻrganish orqali raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligini tahlil qilish. Bu usul ma'lumotlarni toʻplash va ularni sifatli tahlil qilish imkonini beradi. Statistik ma'lumotlar va anketalar yordamida turli mamlakatlardagi raqamli boshqaruv tizimlarining natijalarini oʻlchash. Bu

raqamlashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Turli mamlakatlardagi raqamli boshqaruv tajribalarini taqqoslash orqali samarali model va yondashuvlarni aniqlash, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlillash, monografik tadqiqotlar, dinamikada o‘rganish, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur usul o‘zaro tajriba almashish uchun imkoniyat yaratadi. Muayyan mamlakatlarning raqamli boshqaruv tizimlarini chuqur o‘rganish, ularning muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini tahlil qilishdan iborat.

## Tahlil va natijalar muhokamasi

Ushbu ma'lumotlar tahlili mahalla jamoatchiligi va davlat organlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, aholi salomatligini yaxshilash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir bo‘limga kiritilgan ma'lumotlar mahalladagi turli qatlamlar haqida keng ko‘lamli tasavvur beradi.

Ko‘chalar ro‘yxati: Mahalladagi ko‘chalar ro‘yxati, infratuzilma va jamoatchilik joylari haqida ma'lumot berib, aholi ehtiyojlarini qondirishda ahamiyatlidir. Ushbu ma'lumotlar orqali mahalla rejalashtirish jarayonlari va yangi xizmatlarning taklif etilishi uchun asos bo‘lishi mumkin.

| Кўчалар сони: | | 22 |
|---|---|---|
| Шундан | Тўғри кўчалар | 9 |
| | Тор кўчалар | 9 |
| | тупик (берк) кўчалар | 3 |
| | шоҳ кўчалар сони | 1 |
| Кўп қаватли уйлар сони | | 0 |
| Якка тартибдаги уйлар сони | | 506 |
| Аҳоли доимий яшамайдиган хонадонлар (квартиралар) сони | | 0 |

Mahalla yettiligi: Mas’ullar ro‘yxati, ularning shaxsiy ma’lumotlari va javobgarliklari aniqlanib, jamoatchilik masalalarida rahbarlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, mas’ullarning ishonchliligini ta’minlash muhimdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruvning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq. Ushbu omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Shaffoflik va ochiqlik: Raqamli boshqaruv tizimlari fuqarolarga davlat faoliyatini kuzatish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, hukumatning javobgarligini oshiradi.

Samaradorlik: Raqamli xizmatlar, an'anaviy usullarga nisbatan, jarayonlarni tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Salomatlik ko‘rsatkichlari: Mahalladagi salomatlik muammolari haqida to‘plangan ma'lumotlar, sog‘liqni saqlash dasturlarini amalga oshirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tahlili orqali kasalliklar va salomatlikni yaxshilash choralarini belgilash mumkin.




Fuqarolar ishtiroki: Raqamlashtirish fuqarolar va davlat oʻrtasida oʻzaro aloqalarni kuchaytiradi. Ochiq ma'lumotlar platformalari fuqarolarni davlat qarorlarida ishtirok etishga undaydi.




Uzoq muddatga ketganlar: Chet elga migratsiya qilgan aholi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar mahallaning demografik oʻzgarishlarini tahlil qilishda va migratsiya siyosatini shakllantirishda ahamiyatlidir. Ushbu ma'lumotlar mahallada qaytgan fuqarolarni qoʻllab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda ham foydalidir.



| № | Ф.И.О. | ЖШШИР | ҳолати | тавсиянома имзоланган сана | жинс талаби | телефон рақам | манзил | тавсия санаси | тавсия этилган давлат | мутахассислик | йўлланма ҳолати |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | KOMILOV SHAXZOD BAYRAMALIYEVICH | 30804975650029 | юборилган | 19.08.2024 | аҳамиятсиз | (88) 138-80-09 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 19.08.2024 | Германия | Меҳмонхона хизматчиси | Ishga joylashishi kutilmok |
| 2 | MADRAXIMOVA MATLUBA XABIBULLA QIZI | 40510901801609 | юборилган | 01.04.2024 | аҳамиятсиз | (99) 896-43-54 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 01.04.2024 | Россия | Ошпаз | Tanlovga jalb qilingan |
| 3 | MADRAXIMOVA MAVLUDA XABIBULLAYEVNA | 43110886230062 | юборилган | 03.01.2024 | аҳамиятсиз | (97) 745-20-01 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 03.01.2024 | Швейцария | Ҳамшира | Operator tomonidan rad etil |
| 4 | MIRZAYEV UMIDJON KUDRATOVICH | 30410800171748 | юборилган | 05.07.2024 | эркак | (97) 755-46-06 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 05.07.2024 | Латвия | Пайвандчи | Ishga joylashishi kutilmok |
| 5 | MUSOFIROV KAXRAMON MURODBOYEVICH | 30805810230040 | юборилган | 05.07.2024 | эркак | (77) 081-50-02 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 05.07.2024 | Латвия | Пайвандчи | Ishga joylashishi kutilmok |
| 6 | MUSTAFOKULOV RUSTAM SHARIFOVICH | 30703861800161 | юборилган | 01.04.2024 | эркак | (91) 468-24-52 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 01.04.2024 | Россия | Пайвандчи | Ishga joylashishi kutilmok |
| 7 | SIROJIDINOV AZIMJON HABIBULLOYEVICH | 52901026230022 | юборилган | 03.01.2024 | аҳамиятсиз | (99) 897-41-21 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 03.01.2024 | Швейцария | Ҳамшира | Operator tomonidan rad etil |
| 8 | SROJIDINOV ABDULLAJON XABIBULLAYEVICH | 31503931800047 | юборилган | 03.01.2024 | аҳамиятсиз | (99) 851-42-14 | Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Қозигузар | 03.01.2024 | Буюк Британия | Колбаса цех | Operator tomonidan rad etil |
| 8 | Жами: | 8 | | | | | | | | | |



Меҳнат миграцияси бўйича вакансиялар ҳақида
МАЪЛУМОТ

| № | давлат | иш берувчи ташкилот | вакан-ция ид | иш тури | иш ўринлари сони | малака талаблари | ёш талаблари | жинси | сектор | иш фаолияти | маълумот талаблари | тўлов қиймати |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Rossiya | | | | | |
| 1 | Rossiya | ООО "РУСАЛ КОМПЛЕКТАЦИЯ" | 753 | Доимий | 500 | Аҳамиятсиз | 18-55 | эркак | Ишлаб чиқариш | Станок оператори | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 80000RUB |
| 2 | Rossiya | ООО "ОЗОН КОМЬЮНИТИ" | 752 | Доимий | 800 | Аҳамиятсиз | 18-65 | аҳамиятсиз | Бошқа йўналишлар | Омборхона ишчиси | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 85000RUB |
| 3 | Rossiya | ООО ПСК"АК БАРС СТРОЙ" | 760 | Доимий | 40 | Аҳамиятсиз | 18-55 | эркак | Қурилиш | Қурилиш (касблар кесимида) | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 60000RUB |
| 4 | Rossiya | ООО СЗ "РЕГИОНСТРОЙ ПЛЮС" | 513 | Доимий | 100 | Аҳамиятсиз | 20-50 | эркак | Қурилиш | Монтажник | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 100000RUB |
| 5 | Rossiya | ООО "МАКА" | 512 | Доимий | 1 500 | Малакали | 20-45 | эркак | Қурилиш | Монтажник | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 104000RUB |
| 6 | Rossiya | ООО "ЮНИОН ФУД" | 511 | Доимий | 1 000 | Аҳамиятсиз | 20-50 | аҳамиятсиз | Озиқ-овқат | Ошпаз | Ўрта-махсус | Ойлик маош - 75000RUB |
| 7 | Rossiya | ООО "ТАМАРА И КО" | 510 | Доимий | 60 | Малакали | 26-55 | эркак | Қурилиш | Монтажник | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 110000RUB |
| 8 | Rossiya | АО ЗАВОД "ЖБК" | 751 | Доимий | 10 | Малакали | 18-55 | эркак | Оғир саноат | Электр-газ пайвандчиси | Ўрта-махсус | Ойлик маош - 80000RUB |
| 9 | Rossiya | ЗАО МИКЕЛЬАНДЖЕЛО | 750 | Доимий | 50 | Аҳамиятсиз | 18-60 | аҳамиятсиз | Ишлаб чиқариш | Станок оператори | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 70000RUB |
| 10 | Rossiya | ООО ТАГРАС-ЭНЕРГОСЕРВИС | 749 | Доимий | 10 | Малакали | 18-58 | эркак | Оғир саноат | Пайвандчи | Ўрта | Ойлик маош - 86000RUB |
| 11 | Rossiya | ООО ЗАВОД ЛИНК | 748 | Доимий | 112 | Аҳамиятсиз | - | аҳамиятсиз | Ишлаб чиқариш | Станок оператори | Ўрта | Ойлик маош - 60000RUB |
| 12 | Rossiya | ООО "НАГАЙБАКСКИЙ ПТИЦЕВОДЧЕСКИЙ КОМПЛЕКС" | 747 | Доимий | 90 | Аҳамиятсиз | 18-55 | аҳамиятсиз | Ишлаб чиқариш | Гўшт маҳсулотлари ишлаб чиқариш технологи | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 80000RUB |
| 13 | Rossiya | АО "РУЗАЕВСКИЙ ЗХМ" | 745 | Доимий | 20 | Аҳамиятсиз | 18-59 | эркак | Оғир саноат | Электр-газ пайвандчиси | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 70000RUB |
| 14 | Rossiya | ООО "СК-ПРОФИЛЬ" | 744 | Доимий | 50 | Малакали | 20-45 | эркак | Қурилиш | Брусчатка терувчи | Ўрта | Ойлик маош - 60000RUB |
| 15 | Rossiya | ООО НПО ПРОМЕТ | 463 | Доимий | 500 | Аҳамиятсиз | 18-55 | эркак | Қурилиш | Қурувчи | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 65000RUB |
| 16 | Rossiya | АО ОЭЗ ППТ АЛАБУГА | 851 | Доимий | 2 000 | Малакали | 18-50 | эркак | Қурилиш | Қурувчи | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 87000RUB |
| 17 | Rossiya | ООО "СПАР МИДДЛ ВОЛГА" | 509 | Доимий | 200 | Малакали | 20-60 | аҳамиятсиз | Озиқ-овқат | Ошпаз | Аҳамиятсиз | Ойлик маош - 70000RUB |
| 18 | Rossiya | ООО "ДИМИТРОВГРАДСКИЙ | 505 | Доимий | 100 | Аҳамиятсиз | 20-50 | эркак | Ишлаб чиқариш | Станок оператори | Аҳамиятсиз | Смена - 89120RUB |

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlanmoqda, lekin bu jarayon hali ham bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Boshqaruv organlarining raqamlashtirilishi, shaffoflikni oshirish va fuqarolar bilan aloqalarni kuchaytirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilishi zarur:

Ochiq ma'lumotlar platformalari: Fuqarolar va tadbirkorlar uchun ochiq ma'lumotlar bazalarini yaratish, shaffoflikni ta'minlash va davlat xizmatlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Sun'iy intellekt va big data texnologiyalarini qo‘llash, davlat xizmatlarini optimallashtirishda samarali bo‘ladi. Fuqarolar ishtirokini oshirish: Onlayn platformalar orqali fuqarolarni davlat qarorlarida ishtirok etishga jalb qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Ijtimoiy muammolar: Yo‘qolgan aholi, ish izlovchilar va imkoniyatlari cheklangan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlar, ijtimoiy xizmatlar va dasturlarni rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ular mahallada ijtimoiy himoyani kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan choralarni belgilashga yordam beradi. Har bir bo‘limda to‘plangan ma'lumotlar mahallaning ijtimoiy strukturasini, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu ma'lumotlar mahallada o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishga turtki beradi.




Raqamlashtirish jarayonida muhim qiyinchiliklar ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi. Raqamli ma'lumotlar va xizmatlarni himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Axborot xavfsizligini ta'minlamasdan raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish qiyin. Raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati bo‘lmagan aholining qismi mavjud. Buning natijasida raqamli tafovut yuzaga keladi va bu ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

## Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish va muhokama qilish, mahalladagi muammolarni hal qilish, aholining ijtimoiy salohiyatini oshirish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun zarurdir. Shunday qilib, bunday ma'lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, mahalla hayotining sifatini oshirishda muhim bir vositadir. Mahallalarni qo‘llab-quvvatlash kengashlari: Mahallalarda ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun Respublika va hududiy kengashlar tashkil etiladi. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, mahallalar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish va xalq bilan davlat o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydigan muhim tuzilma sifatida belgilangan. Mahalla rahbarlari, hokim yordamchilari va boshqa mas'ul shaxslarning vazifalari aniq belgilangan bo‘lib, aholini ijtimoiy xizmatlar, tadbirkorlik va o‘zaro yordamga jalb qilishga yo‘naltiriladi. "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayoni yanada soddalashtiriladi. Mahallalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar jalb etish va ularni samarali taqsimlash tizimi joriy etiladi. Qaror ijrosida ochiqlik, haqqoniylik va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, mahallalardagi ijtimoiy yordam va subsidiyalarni taqsimlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ushbu qaror mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, aholi o‘rtasida hamjihatlikni kuchaytirish va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. https://mahalla.ijro.uz/mahalla/current-mahalla/general.
2. https://lex.uz/uz/docs/-6042734 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.06.2022 yildagi 292-son O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023 yildagi PF-209-sonli Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida.
5. https://www.livelib.ru/author/279175-kris-skinner.
6. https:/ https://www.livelib.ru/author/39521-shoshana-zuboff.
7. www.researchgate.net/scientific-contributions/Josep-M-Codina-70625969.
8. https://www.researchgate.net/profile/Catherine-Dignazio.
9. https://typeset.io/authors/vladimir-gorshkov-185l4u7ktv.
10. https://publications.hse.ru/pubs/share/direct/797768204.pdf.
11. https://www.researchgate.net/profile/Farkhod-Abdurakhmnonov.
12. https://cyberleninka.ru/article/n/rentgenodifraktsionnye-i-elektronno-mikroskopicheskie-issledovaniya-metallooksidnyh-plenok-zno-s-poluchennyh-metodom-ultrazvukovogo.